«Universal Mobile Systems»
Mas'uliyati cheklangan jamiyati

Общество с ограниченной
ответственностью
«Universal Mobile Systems»

O'zbekiston, 100000
Toshkent shahri, Amir
Temur shoh ko'chasi, 24.
Tel: (+99897) 403 83 35
Faks: (+99871) 235 81 60,
e-mail: info@mobi.uz
www.mobi.uz

«TASDIQLAYMAN»
«UNIVERSAL MOBILE SYSTEMS» MChJ
Bosh direktorining
texnika va AT bo'yicha o'rinbosari

_____ A.R. Abduraxmanov

2026-yil «___»_____

«1S:ZUP KORP» dasturiy mahsulotidan foydalanish uchun nomutlaq huquq (litsenziya) taqdim etish xizmatlari uchun
TEXNIK TOPSHIRIQ

«UNIVERSAL MOBILE SYSTEMS» MChJ
(«Universal Mobile Systems» mas'uliyati cheklangan jamiyati) ehtiyojlari uchun

Toshkent shahri

2026-yil

Mundarija

1. Umumiy ma'lumotlar 3
1.1 Ko'rsatiladigan xizmatlar nomi 3
1.2 Ko'rsatiladigan xizmatlardan foydalanish asosi va maqsadi 3
1.3 Xizmatlar ro'yxati va hajmi 3
2. Xizmat ko'rsatish joyi. Qo'llanilish sohasi 4
3. Ishtirokchiga qo'yiladigan umumiy talablar 5
4. Xizmat ko'rsatish muddatlari 6
5. Xizmatlarning sifati, ishonchliligi va xavfsizligiga qo'yiladigan talablar 6
6. DTni taqdim etish tartibi va shartlari 6
7. Kafolatlar taqdim etish hajmi va/yoki muddatiga qo'yiladigan talablar 7
8. Dasturiy ta'minotni texnik qo'llab-quvvatlashga qo'yiladigan talablar 8
9. Obyektga bo'lgan mutlaq huquqlar va boshqa hujjatlarni topshirish tartib-taomili 8
10. Xodimlarga texnik yo'l-yo'riq ko'rsatish bo'yicha talablar 8
11. Foydalanish sharoitlariga qo'yiladigan talablar 8
12. Qo'shimcha talablar 8
13. Qabul qilingan qisqartmalar ro'yxati 9
14. Ilovalar ro'yxati 9

1. Umumiy ma'lumotlar

1.1 Ko'rsatiladigan xizmatlar nomi

"UMS" MChJ ehtiyojlari uchun oddiy (nomutlaq) litsenziya shartlari asosida "O'zbekiston uchun 1C:Ish haqi va xodimlarni boshqarish 8 KORP" («1С:Зарплата и управление персоналом 8 КОРП для Узбекистана») dasturiy mahsulotidan (bundan keyin matnda – DT) foydalanish huquqlarini "UMS" MChJ (bundan keyin matnda – Buyurtmachi) uchun joriy etish va yo'riqnoma (instruktaj) o'tkazish xizmatlari bilan birgalikda xarid qilish.

DTdan foydalanish uchun taqdim etiladigan nomutlaq huquqlar (litsenziyalar) faqatgina yakuniy foydalanuvchilarga ushbu huquqni berish maqsadida taqdim etiluvchi hamda o'rnatish, nusxalash va ishga tushirish huquqi bilan cheklangan takrorlash huquqini o'z ichiga oladi.

Nomutlaq huquqlarning amal qilish muddati (nomutlaq huquqlar beriladigan foydalanish davri) – muddatsiz.

Nomutlaq huquqlar O'zbekiston Respublikasi hududida foydalanish uchun beriladi.

1.2 Ko'rsatiladigan xizmatlardan foydalanish asosi va maqsadi

Xizmatlardan foydalanish maqsadi kadrlar hisobini va xodimlar bilan hisob-kitoblarni avtomatlashtirishdan iborat.

1.3 Xizmatlar ro'yxati va hajmi

1-jadval. Spetsifikatsiya

T/r	Xizmat nomi	O'lch. birl.	Xizmatlar soni
1	"O'zbekiston uchun 1C:Ish haqi va xodimlarni boshqarish 8 KORP"	Server uchun litsenziya	1
2	Joriy etish bo'yicha xizmatlar: ma'lumotlarni ko'chirish va tizimni foydalanish uchun sozlash		1
3	Buyurtmachi xodimlariga tizim funksionali bilan ishlash bo'yicha yo'l-yo'riq ko'rsatish xizmatlari – kamida 80 soat.		1
4	365 kun davomida dasturiy ta'minotni axborot-texnologik qo'llab-quvvatlash xizmatlari (1C:ITS Prof versiyasi)		1

Dasturiy ta'minotga qo'yiladigan talablar.

Tizim "1С:Предприятие 8.3" platformasida ishlovchi «1С:Зарплата и управление персоналом 8 КОРП для Узбекистана» (3.1-tahrir) namunaviy ommaviy yechimi asosida qurilishi kerak.

- Tizim mijoz-server variantida ("1C:Predpriyatiye 8" ilovalar serveri + MBBT) joylashtiriladi. Faylli variantga yo'l qo'yilmaydi.

- Barcha server komponentlari Buyurtmachining virtual infratuzilmasida joylashtiriladi. Tizim komponentlarini yoki Buyurtmachi ma'lumotlarini bulutli xizmatlarda yoxud Ijrochining maydonchalarida joylashtirishga yo'l qo'yilmaydi.
- Tizim "nozik mijoz" (tonkiy kliyent) va veb-mijoz orqali ishlashni qo'llab-quvvatlashi kerak. Foydalanuvchilar ishlashini faqat bitta mijoz turi bilan cheklashga yo'l qo'yilmaydi.

Ijrochi PostgreSQL ("1C:Predpriyatiye" uchun sertifikatlangan yig'ma) yoki Microsoft SQL Server MBBT bilan ishlash imkoniyatini ta'minlashi kerak. MBBT bo'yicha yakuniy tanlov loyihaviy yechim bosqichida kelishiladi.

Ijrochi Tizimdan foydalanish uchun zarur bo'lgan uslubiy materiallarni, jumladan foydalanuvchilar va administratorlar uchun yo'riqnomalarni, namunaviy operatsiyalar tavsifini hamda bajarilgan takomillashtirish va integratsiya ishlari bo'yicha materiallarni taqdim etishi shart.

Joriy etish xizmatlariga qo'yiladigan talablar.

Boshlang'ich ma'lumotlarni ko'chirish.

Ijrochi boshlang'ich qoldiqlarni amaldagi "1C:UPP 1.2" axborot tizimidan yaratilayotgan "1C ZUP KORP" AT axborot bazasiga ko'chirishni ta'minlashi lozim.

Ko'chiriladigan ma'lumotlar tarkibida tizimning keyingi ishlashi uchun zarur bo'lgan barcha ma'lumotlar, jumladan, o'rtacha ish haqini hisoblash uchun ma'lumotlar, foydalanilmagan ta'tillar miqdori hamda har bir xodim bo'yicha shaxsga doir barcha ma'lumotlar bo'lishi kerak.

Ma'lumotlarni ko'chirish migratsiya qoidalarini tayyorlash, ma'lumotlarni yuklash, ularning to'liqligi va to'g'riligini tekshirish, aniqlangan tafovutlarni bartaraf etish, shuningdek, migratsiya natijalari bayonnomasini Buyurtmachiga taqdim etishni o'z ichiga oladi.

Ma'lumotlarni ko'chirish 2200 nafar xodim va fuqarolik-huquqiy tusdagi (FHT) shartnomalar bo'yicha ishlovchi 100 nafar shaxsga nisbatan amalga oshiriladi.

Ko'chirish yakunlangach, Ijrochi Buyurtmachi bilan birgalikda solishtirma tekshiruv o'tkazadi hamda ko'chirish to'liqligining miqdoriy ko'rsatkichlari (manba va qabul qiluvchi tizimdagi yozuvlar soni) va to'g'rilikni tanlab tekshirish natijalarini o'z ichiga olgan bayonnomani rasmiylashtiradi. Nazorat summalari va asosiy ko'rsatkichlar bo'yicha tafovutlar bo'lmagan taqdirda, ko'chirish bajarilgan hisoblanadi.

Tizimni sozlash

Ijrochi tizimni foydalanishga topshirish uchun uni Buyurtmachining kadrlar tuzilmasi, hisob siyosati, ichki me'yoriy hujjatlari va rollar matritsasiga muvofiq sozlashi lozim.

Joriy etish xizmatlari Buyurtmachi hududida ko'rsatiladi.

Yo'riqnoma o'tkazish.

Ijrochi Buyurtmachi xodimlariga axborot tizimining (AT) har bir bo'limi bo'yicha yo'riqnoma o'tkazishi shart.

O'quv soatlari hajmi kamida 80 soatni tashkil etishi, bunda o'qitish jadvali Buyurtmachi tomonidan belgilanishi lozim.

Ijrochi yo'riqnomani Buyurtmachi hududida oflayn shaklda o'tkazishi lozim.

2. Xizmat ko'rsatish joyi. Qo'llanilish sohasi

Dasturiy ta'minotdan foydalanish usullari (litsenziyalari):

- DTni takrorlash, DTni o'rnatish va ishga tushirish, EHM va/yoki serverlar xotirasida saqlash, zaxira nusxa olish, DTni faollashtirish, yangilash hamda uning dolzarb versiyalaridan foydalanish (1-jadvalda ko'rsatilgan hajmlarda);

- DT yordamida tijorat faoliyatini amalga oshirish uchun undan funksional maqsadiga muvofiq foydalanish;

- yakuniy foydalanuvchi uchun litsenziya kelishuviga muvofiq DTdan nusxa olish va uni ishga tushirish;

- Dasturiy ta'minotni Ijrochi bilan kelishilgan dasturiy-apparat platformasida saqlash va o'rnatish;

- funksional vazifasiga muvofiq to'liq hajmda o'z ehtiyojlari uchun foydalanish;

- DT yordamida olingan barcha natijalarga nisbatan huquq.

Buyurtmachi mazkur huquqlardan O'zbekiston Respublikasining barcha hududida foydalanadi.

Xizmatlar ko'rsatish joyi: O'zbekiston Respublikasi, Toshkent sh., Yunusobod tumani, Amir Temur shoh ko'chasi, 24-uy (Markaziy ofis, «UMS» MChJ).

3. Ishtirokchiga qo'yiladigan umumiy talablar

3.1. DTdan foydalanish uchun nomutlaq huquqlarni (litsenziyalarni) taqdim etish maqsadida Ijrochi quyidagi maqomga ega bo'lishi shart: 1C mahsulotlarini tarqatish huquqi bilan «1C» firmasining kamida uch yillik franchayzi bo'lishi hamda Buyurtmachiga ushbu maqomni tasdiqlovchi hujjatlarni taqdim etishi lozim.

Buyurtmachi Ijrochining DTni (litsenziyalarni) topshirish vakolatiga egaligini tasdiqlovchi avtorizatsiya xatini (MAF) qo'shimcha ravishda so'rab olish huquqiga ega.

3.2. Ijrochi xodimlari soni 1000 kishi va undan ortiq bo'lgan korxonalarda "1S ZUP KORP" dasturiy ta'minotini joriy etish tajribasiga ega bo'lishi va ushbu tajribani tasdiqlovchi ma'lumotlarni taqdim etishi lozim.

3.3. Ijrochi Buyurtmachi bilan ishlash uchun kamida olti nafar mutaxassisdan iborat loyiha jamoasi ro'yxatini taqdim etishi kerak. Buyurtmachining so'rovlariga tezkor javob berishni ta'minlash maqsadida Ijrochi Toshkent shahrida o'z ofisiga ega bo'lishi shart.

3.4. Ijrochi quyidagilarni amalga oshirishi shart:

- Buyurtmachining dasturiy mahsulotning eng so'nggi dolzarb versiyasidan foydalanish imkoniyatini ta'minlash;

- Dasturiy ta'minot spetsifikatsiyasida (ushbu Texnik topshiriqning 1-jadvalida) nazarda tutilgan doirada dasturiy mahsulotdan foydalanish huquqlarini topshirishni ta'minlash.

- Shartnoma tuzilgan sanadan boshlab 10 (O'n) ish kuni ichida "Internet" axborot-kommunikatsiya tarmog'idagi resursdan (saytdan) o'rnatish fayllarini yuklab olish uchun ruxsat berish orqali Buyurtmachining mahsulotlarning dolzarb versiyalarini yuklab olish vositalaridan foydalanish imkoniyatiga ega bo'lishini ta'minlash.

- nomutlaq litsenziyalarning amal qilish davrida mahsulotlarning yangilangan versiyalari chiqqanidan so'ng 10 (o'n) ish kuni ichida "Internet" axborot-kommunikatsiya tarmog'idagi resursdan (saytdan) ularning o'rnatish fayllarini yuklab olish uchun ruxsat berish orqali dasturiy ta'minotning yangilangan versiyalarini Buyurtmachiga topshirishni ta'minlash.

3.5. Ijrochi dasturiy mahsulotdan foydalanishga oid nomutlaq huquqlarni (litsenziyalarni) qabul qilish-topshirish dalolatnomasi imzolangan sanadan boshlab 12 (o'n ikki) kalendar oy davomida dasturiy ta'minot yangilanishlarini tegishli tarzda o'rnatish hamda ulardan foydalanish uchun zarur bo'lgan taqdim etilayotgan parollar, elektron-raqamli kalitlar va boshqa vositalarning haqiqiyligi hamda yaroqliligini kafolatlashi shart.

Kafolat muddati davomida ko‘rsatilayotgan xizmatlar natijasida kamchilik aniqlangan taqdirda, Ijrochi Buyurtmachi tomonidan kamchilik to‘g‘risida xabarnoma taqdim etilgan paytdan boshlab 2 (ikki) ish kunidan oshmagan muddatda (boshqa muddat Tomonlarning alohida yozma kelishuvida belgilanishi mumkin) ushbu kamchilikni bartaraf etishi va ko‘rsatilgan xizmatlarning nuqsonlardan xoli natijasini Buyurtmachiga topshirishi shart.

Ushbu bandga muvofiq ko‘rsatilgan xizmatlar natijasidagi kamchiliklarni bartaraf etish bilan bog‘liq barcha xarajatlarni Ijrochi o‘z zimmasiga oladi. Buyurtmachi ko‘rsatilgan Xizmatlarning kamchiliklarini bartaraf etish bilan bog‘liq hech qanday xarajatlarni qoplamaydi. Ijrochining mazkur band bo‘yicha majburiyatlari Buyurtmachi tomonidan ko‘rsatilgan Xizmatlarning kamchiliklardan xoli natijasi to‘g‘risidagi Dalolatnoma imzolangan paytdan boshlab bajarilgan hisoblanadi.

Ijrochi ushbu texnik topshiriq talablarining bajarilishi uchinchi shaxslarning qonuniy huquqlarini va/yoki amaldagi qonunchilik talablarini buzmasligini kafolatlashi shart. Shuningdek, u dasturiy ta’minotni yangilash uchun berilgan har qanday huquq uchinchi shaxslarning mualliflik huquqlarini yoki intellektual mulk obyektlariga bo‘lgan boshqa mutlaq huquqlarini bevosita buzadi, degan iddaoga asoslangan har qanday e’tiroz va/yoki da’volarni o‘z hisobidan hal qilish va/yoki ular bo‘yicha Buyurtmachini himoya qilish majburiyatini oladi.

Ijrochi Buyurtmachiga ushbu texnik topshiriq talablarida tavsiflangan xizmatlarni ko‘rsatish huquqiga ega ekanligini kafolatlashi shart.

3.6. Ijrochi texnik yordam (TY) Buyurtmachiga biriktirilgan sertifikatlangan texnik muhandis tomonidan amalga oshirilishini kafolatlashi shart.

4. Xizmat ko‘rsatish muddatlari

Dasturiy ta’minotdan foydalanish uchun nomutlaq huquqlar (litsenziyalar) Ijrochi Buyurtmachidan avans to‘lovini olgan kundan boshlab 10 (o‘n) ish kuni ichida taqdim etiladi.

Dasturiy ta’minotni joriy etish bo‘yicha xizmatlarni ko‘rsatish muddati – dasturiy ta’minot yetkazib berilgan sanadan boshlab 15 ish kuni ichida, xatolarni aniqlash va bartaraf etish muddati — dasturiy ta’minot yetkazib berilgan sanadan boshlab 60 ish kun ichida.

Yo‘riqnoma o‘tkazish bo‘yicha xizmatlarni ko‘rsatish muddati – Buyurtmachining jadvaliga muvofiq, biroq dasturiy ta’minot yetkazib berilgan sanadan boshlab 60 ish kundan kechiktirmay.

5. Xizmatlarning sifati, ishonchliligi va xavfsizligiga qo‘yiladigan talablar

Xizmatlar O‘zbekiston Respublikasi qonunchiligida belgilangan xavfsizlik qoidalariga, ishlab chiqarish va realizatsiya qilish me’yorlariga muvofiq bo‘lishi kerak. Uch yillik texnik qo‘llab-quvvatlash dasturi bo‘yicha olinadigan dasturiy ta’minotning yangi versiyalari litsenziya jihatdan toza bo‘lishi, tarkibida buzg‘unchi, josuslik yoki kuzatuvchi kodlar bo‘lmasligi kerak.

6. DTni taqdim etish tartibi va shartlari

Topshirish shartlari - Buyurtmachining elektron manziliga raqamli tarqatish yo‘li bilan.

DTdan foydalanish huquqlarini qabul qilish-topshirish Dasturiy ta’minotdan foydalanishga doir nomutlaq huquqlarni (litsenziyalarni) qabul qilish-topshirish dalolatnomasi asosida amalga oshiriladi. Mazkur Dalolatnoma Ijrochi tomonidan Buyurtmachiga DTdan foydalanish huquqlarini topshirish bilan bir vaqtda 2 (ikki) nusxada taqdim etiladi. Buyurtmachi DTdan foydalanish huquqlari va Dalolatnoma olingan kundan e’tiboran 3 (uch) kundan kechiktirmay Dasturiy ta’minotdan foydalanishga doir nomutlaq huquqlarni (litsenziyalarni) qabul qilish-topshirish dalolatnomasini imzolashi va bir nusxasini Ijrochiga qaytarishi yoxud e’tirozlar mavjud bo‘lgan

taqdirda, xuddi shu muddatda uni imzolashni rad etish to‘g‘risida yozma ravishda asoslantirilgan javobni taqdim etishi shart.

Aynan ushbu Dalolatnoma Buyurtmachining DTdan Dalolatnomada ko‘rsatilgan muddat davomida oddiy (nomutlaq) litsenziya shartlari asosida foydalanish huquqlarini tasdiqlovchi hujjat hisoblanadi.

7. Kafolatlar taqdim etish hajmi va/yoki muddatiga qo‘yiladigan talablar

Ijrochi dasturiy ta’minotning e’lon qilingan texnik xususiyatlarga muvofiq ishlashini kafolatlaydi..

Ijrochi dasturiy ta’minotdan to‘g‘ri foydalanishi sharti bilan, uning yangi versiyalari sifati va xavfsizligi uchun to‘liq javobgarlikni o‘z zimmasiga oladi.

Ijrochi ko‘rsatilgan xizmatlar to‘g‘risidagi dalolatnoma imzolangan paytdan boshlab 12 (o‘n ikki) oy davomida dasturiy ta’minotda nuqsonlar bo‘lmasligini, uning soz va xavfsiz ishlashini kafolatlashi shart.

Ijrochi yetkazib berilayotgan dasturiy ta’minotga nisbatan uchinchi shaxslarning hech qanday huquqlari mavjud emasligini, uning garovga qo‘yilmaganligini, xatlanmaganligini, Ijrochining hech qanday majburiyatlari bilan cheklanmaganligini, Buyurtmachiga erkin topshirilishi mumkinligini hamda Buyurtmachi tomonidan undan foydalanish har qanday uchinchi shaxslarning huquqlarini buzmasligini kafolatlashi shart.

Ijrochi dasturiy ta’minotni yetkazib berish barcha litsenziyalash shartlariga muvofiq amalga oshirilishini kafolatlashi lozim. Ijrochi Buyurtmachi xodimlariga dasturiy ta’minotni sozlash va undan foydalanish xususiyatlari bo‘yicha texnik maslahatlar berish imkoniyatiga ega bo‘lishi kerak.

Tizimdan foydalanish jarayonida dasturiy kod, sozlamalar, integratsiyalar yoki Ijrochi tomonidan bajarilgan boshqa ishlarning natijalari bilan bog‘liq sintaktik, dasturiy va boshqa xatoliklar yuzaga kelgan taqdirda, Ijrochi bunday xatoliklarni kafolat majburiyatlari doirasida, Buyurtmachidan qo‘shimcha to‘lov olmasdan bartaraf etishi shart.

Ko‘rsatilgan xatolarni bartaraf etish yangi funksionallikni ishlab chiqish yoki Tizimni takomillashtirish hisoblanmaydi va Buyurtmachi tomonidan Tizimni rivojlantirish, takomillashtirish yoki texnik qo‘llab-quvvatlash uchun ajratilgan soatlar hisobidan bajariladigan ishlar sifatida hisobga olinmasligi kerak.

Ishlab chiqish va/yoki takomillashtirish uchun shartnomada nazarda tutilgan soatlarning yo‘qligi Ijrochining o‘zi bajargan ishlar sababli yuzaga kelgan nuqson va xatolarni bartaraf etishdan bosh tortishi uchun asos bo‘la olmaydi.

Dastlabki sinovlar va tajriba tariqasida foydalanish doirasida Tizimni qabul qilib olishda Ijrochi nuqsonlarni qayd etib borishi va ularni tasniflashi shart.

Qabul qilib olish jarayonida nuqsonning aniqlanishi quyidagi jadvalga muvofiq TT talabining qabul qilinishi yoki qilinmasligiga ta’sir ko‘rsatishi kerak.

Nuqsonlarning ustuvorlik darajalari

Nuqson	**Nuqson tavsifi**	**Yechim**
Jiddiy nuqson	Texnik topshiriqdagi (TT) talabni tekshirish imkonsiz	TT talabi qabul qilinmadi

O‘rta darajadagi nuqson	Tizim TT talabini bajaradi, ammo testning yakunlanishiga ta’sir qilmaydigan xatoliklar yuzaga keladi	Talab xatoliklar bilan qabul qilindi
Quyi darajadagi nuqson	Tizim TT talabini uning to‘g‘ri bajarilishiga ta’sir qilmaydigan arzimas xatoliklar bilan bajaradi	Talab jiddiy bo‘lmagan xatoliklar bilan qabul qilindi

8. Dasturiy ta’minotni texnik qo‘llab-quvvatlashga qo‘yiladigan talablar

Dasturiy ta’minotni texnik qo‘llab-quvvatlash “Huquq egasining texnik qo‘llab-quvvatlash hayotiy sikli siyosati”ga (http://1c.uz/support/how_get.php) qat’iy mos kelishi lozim.

Dasturiy ta’minotdan foydalanish masalalari bo‘yicha texnik maslahatlar berish, o‘rnatish hamda sozlash jarayonida maslahat yordamini ko‘rsatish va hodisalarning salbiy oqibatlarini bartaraf etish bo‘yicha so‘rovlarni qabul qilish quyidagilar vositasida amalga oshiriladi:

1. Buyurtmachiga 24x7x365 rejimida (dam olish va bayram kunlarini hisobga olgan holda tun-u kun) so‘rovlarni joylashtirish imkoniyati bilan huquq egasi/Ijrochining texnik qo‘llab-quvvatlash Internet-portaliga kirish huquqini taqdim etish.

2. Ajratilgan ustuvor telefon liniyasi orqali so‘rovlarni quyidagi rejimda qabul qilish:

□ muhimlik darajasi 1 va 2 bo‘lgan so‘rovlar uchun — 24x7x365;

□ shoshilinchlik darajasi 3–4 bo‘lgan so‘rovlar uchun — ish kunlari soat 09:00 dan 18:00 gacha.

3. Internet-portal orqali so‘rov yaratish imkoni bo‘lmagan taqdirda, so‘rovlarni elektron pochta orqali 24x7x365 rejimida (dam olish va bayram kunlarini hisobga olgan holda tun-u kun) qabul qilish.

4. Shaxsiy texnik menejer tomonidan so‘rovlarni ish kunlari ish vaqtida — soat 10:00 dan 18:30 gacha qabul qilish.

9. Obyektga bo‘lgan mutlaq huquqlar va boshqa hujjatlarni topshirish tartib-taomili

Talablar qo‘yilmaydi.

10. Xodimlarga texnik yo‘l-yo‘riq ko‘rsatish bo‘yicha talablar

Alohida ish turi sifatida belgilangan.

11. Foydalanish sharoitlariga qo‘yiladigan talablar

Litsenziyalangan dasturiy ta’minot Buyurtmachining texnik vositalarida qo‘llanilishi lozim.

Buyurtmachi serverda DTdan foydalanish huquqini, sotib olinayotgan Litsenziyalarning hajmi va turiga, maqsadi hamda qoidalariga muvofiq, 1.3-bandga asosan ko‘rsatilgan usullar bo‘yicha oladi.

12. Qo‘shimcha talablar

DT va uning boshqaruv vositalari uchun foydalanish hujjatlari davlat standartlari talablariga muvofiq rus tilida tayyorlangan hujjatlarni, jumladan foydalanuvchi (administrator) qo‘llanmasini o‘z ichiga olishi kerak.

DT bo‘yicha hujjatlar tegishli antivirus himoyasi vositasini o‘rnatish, sozlash va undan foydalanish jarayonini batafsil tavsiflashi lozim.

13. Qabul qilingan qisqartmalar ro‘yxati

Atamalar va qisqartmalar	To‘liq shakli
Buyurtmachi	“UMS” MChJ
Ijrochi	Xarid tartib-taomili ishtirokchisi
DT	Dasturiy ta’minot
TT	Texnik topshiriq

14. Ilovalar ro‘yxati

Ilovalar ro‘yxati taqdim etilmaydi.

Tuzuvchi:

Bosh buxgalter — Ye.V.Markelova

Kelishilgan:

TB ATD TAT bo‘yicha direktori — U.A.Mavlyanov

TB ATD bo‘lim boshlig‘i — U.F.Sobirov